

Olam lisoniy manzarasi hayvon nomlarida voqelanishi

A. Jo'raqulov¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada olamning metaforik manzarasi aksariyat hollarda hayvonot dunyosining nomlari bilan ifodalanishi o'rganilgan. Olam borki, u o'zini o'rab turgan mavjudot maxluqot nomlari bilan chambarchas bog'langan. Shu nuqtai nazardan hayvonot olami nomlari inson nutqida til birliklari tarkibida, ya'ni frazeologik va paremiologik birliklar tarkibida qo'llanilishi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: olamning lisoniy manzarasi, zoonim, kognitiv tilshunoslik, frazeologiya, frazeogik birlik, zoometafora, antroposentrizm.

doi: <https://doi.org/10.2024/nawedqo8>

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida ilm-fanning ko'plab ko'rinishlarida, jumladan, tilshunoslikda ham o'ziga xos jihat, ya'ni insonni bilish va uni o'rganish sohasi vujudga keldi. Bu hodisa zamonaviy ilm-fanda insonning olam bilan xilma-xil munosabatlari va aloqalarini tobora to'liq qamrab olishi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, tizimli-strukturaviy ilmiy paradigma antroposentrik paradigma bilan almashtirildi, unga ko'ra inson olamning markazi, yakuniy maqsadi hamda dunyoda sodir bo'layotgan barcha hodisalarning sababchisi va butun olam qurilishining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Yangi ilmiy paradigma insonni hamma narsaning o'lchovi, nafaqat obyekt, balki bilishning subyektiga aylantirdi va uni olamning markaziga qo'ydi. Bu jarayonlar tilshunoslikka ham ta'sir etib, insonni tilni tushunishda ham, o'rganishda ham markaziy nuqtaga aylantirdi. Yangi yondashuv tufayli inson muayyan hodisalarni tahlil qilishda asosiy maydonga aylanadi, u ushbu tahlilda ishtirok etadi, uning istiqbollari va yakuniy maqsadlarini belgilaydi. Shu munosabat bilan tilni yuzaki o'rganishdan uni chuqurroq bilishga, tilshunos olimlarning asarlarida o'z ifodasini topgan hukmron antroposentrik paradigmani hisobga olgan holda o'tish zarurati tug'ildi.

Nemis olimi V. fon Gumboldt birinchilardan bo'lib tilni shaxsning mulki sifatida o'rganishni taklif qilgan. U har qanday tilni o'rganishdan maqsad insonning o'zini o'zi tushunishi va uning atrofidagi dunyoga munosabati, bunda har qanday obyekt inson, uning idroki va tafakkuri bilan bog'liq deb hisoblagan [3, 11 b.].

XX asrning ko'zga ko'ringan tilshunoslaridan biri bo'lgan fransuz tilshunosi E. Benveniste ham tilshunoslikda antroposentrik paradigma g'oyalarini mustahkamlashda ko'p ishlarni amalga oshirib, inson va til o'rtasidagi mustahkam munosabatlarga urg'u berib, tilni shaxssiz tasavvur etib bo'lmaydi, degan va aksincha [1, 195 b.].

¹ Jo'raqulov Abror Raufovich, SamDCHTI nemis tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

Rus tilshunosligida antroposentriklik tamoyili I.A. Boduen de Kurtene asarlarida XIX asrning oxirlarida o'z aksini topgan bo'lib, uning fikricha, fonologiya faqat inson nutqi tovushlari bilan shug'ullanadigan fandir [2, 265 b.]. Olim, shuningdek, "til faqat individual miyalarda, faqat qalblarda, faqat ma'lum bir lingvistik jamiyatni tashkil etuvchi shaxslar va individlar ruhiyatida mavjud" deb hisoblagan.

Y.S.Stepanov antroposentrik paradigmani zamonaviy tilshunoslik uchun asosiy paradigma deb ataydi va har bir tilning "so'zlovchining tilni qo'llash jarayonida o'zlashtirish qobiliyati" asosiy xususiyatini esa "subyektivlik" deb tushunadi [6, 50 b.].

A.A.Potebnya ham antroposentrik tamoyil haqida gapirib, har qanday til faqat jamiyatda mavjud bo'lishi mumkin, chunki inson ham faqat jamiyatdagina yashab, atrofidagi odamlarning so'zlarini tushunib, ular tomonidan anglanishi mumkin, degan fikrni bildiradi [5, 40 b.].

Aksariyat tilshunoslar har qanday tilni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish inson omilini oldingi planga qo'ygan holda olib borilishi kerak degan fikrdadirlar. Shunday qilib, insonning tilga ta'siri ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: birinchidan, odamning tilga ta'sirining psixologik va fiziologik jihatlari va ikkinchidan, odam olam manzarasining til xususiyatlariga ta'siri, uning madaniyati, dini va boshqalar hisobga olingan holda, ya'ni milliylik, mentaliteti nazarda tutiladi.

E.S.Kubrakovaning ta'kidlashicha, "ilmiy obyektlar, birinchi navbatda, inson uchun ularning roli, ularning nima maqsadga yo'naltirilganligi, insonni shaxs sifatida kamol topishi uchun va uni takomillashtirishdagi vazifalari bilan o'rganiladi ...", biroq tilni matn va diskursda qo'llash jarayonida o'rganishni taqozo etadi [4, 43 b.].

Atrof-muhitni bilish, tushunish, anglash va o'rganish jarayonida insonning aqliy faoliyati natijasini tilda aks ettiruvchi antroposentrik tamoyilga kognitiv tilshunoslik ham rioya qiladi.

Inson zamonaviy tilshunoslikning asosiy qudrati va "til haqidagi fanni belgilovchi va mustahkamlovchi kuch ekanligi so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqot ishlarida ko'rsatib o'tilgan bo'lib, haqiqatdan ham inson tilshunoslik, adabiyotshunoslik fanlarining predmeti, vazifalari, usullari, yondashuvlari va yo'nalishlarini belgilaydi. Bugungi kunda tilshunoslik rivojida tilni o'rganish inson omilisiz amalga oshirilishini yoki tilshunoslik fani "insonsiz" o'rganilgan davrni tasavvur qilish qiyin.

So'nggi yillarda tilshunos olimlar zamonaviy lingvistik mushohada antropotsentrizm tamoyili bilan aniqlanadi, degan xulosani ilgari surmoqda. Ikki yo'nalishdagi, ya'ni ijtimoiy va noijtimoiy turdagi fanlar paydo bo'la boshladi: sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, paralingvistika, matematik tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va boshqalar.

Umuman olganda insonning atrof-muhitni, olamni idrok qilishi, anglashi, tushunishi nisbiy va uning markazida inson turadi, unda asosiy ijtimoiy-madaniy tushunchalar va qadriyatlar ifodalanadi.

So'zning ma'nosi ularning ko'p sonli asarlar matnlarida qo'llanilishi asosida aniqlanadi va o'rganiladi. Natijada u yoki bu so'zning butun semantikasining nimani anglatishini ko'rish, bilish mumkin bo'ladi. Tilni samarali o'rganish uchun pragmatik (diskursiv) omillarga murojaat qilgan holda antroposentrik yo'nalish bilan tavsiflanadigan kognitiv-diskursiv yondashuv tarafdorimiz.

Bizning tadqiqotlarimizda antroposentrik yondashuv inson va hayvonot dunyosi o'rtasidagi munosabatlar bilan asoslanadi, ular haqidagi bilimlar dunyoning umumiy va lingvistik, milliy va metaforik chizgilarida aks etadi. Yangi antroposentrik paradigma nuqtai nazaridan, metafora inson tafakkurining va madaniy sohada inson hayot faoliyatining boshqa ko'plab jabhalarida muhim qismi hisoblanadi. Har bir jonli tilda metaforizatsiya jarayonlari sodir bo'ladi, bu tabiiy tilning aloqa vositasi sifatidagi o'ziga xos xususiyatidir. Aynan shuning uchun ham dunyoning metaforik surati va bu til hodisasini o'rganishning turli usullari hozirgi davrda olimlarning e'tiborini tortmoqda.

O'zida hayvonlar xarakter-xususiyatlarini payqagan holda o'z tabiatini, xulq-atvorini, fazilatlarini ularda ham ko'rishni istadi. Inson xarakter-xususiyatlari, sifatleri, tabiatining jonli narsalarga, hayvonlarga, parrandalarga, tabiat hodisalariga, o'simliklarga, ya'ni flora va fauna vakillariga nisbatan tilda qo'llanilishini xalq og'zaki ijodida, afsonalarda, ertaklarda va badiiy asarlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

A.Yaxshiyevning ta'kidlashicha, "har qanday til, atrof-muhitni o'rab turgan narsa-predmetlar va hodisalarni aks ettiradi, ularni nomlaydi va ataydi, unda so'zlashadigan odamlar uchun olamning lisoniy manzarasini ularning ongida mujassamlashtiradi va shakllantiradi" [7, 27 b.]. XX asr boshlarida paydo bo'lgan "olam manzarasi" atamasi keyinchalik tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi bo'lib qo'llanila boshlandi va tabiiy ravishda obyektlarning mohiyatini aks ettirishi kerak bo'lgan ichki tasvirlar yoki belgilarda aks ettirilgan tashqi olam obyektlari yig'indisi sifatida tushuniladi.

Zamonaviy tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasiga har xil izoh va talqinlar berilgan. Umuman olganda inson olamni ko'rib, eshitib, his qilib, ongida shakllantiradi va tasavvur qiladi, demak uning tasavvuri, tushunishi - bu uning olam manzarasidir. O'sha olam manzarasining chizg'ilarini tilda ifodalanishi olamning lisoniy manzarasidir. Tilshunos olimlar fikrlariga ko'ra, bu konsepsiya inson mavjudligining xususiyatlarini, uning dunyodagi ahamiyatini, shuningdek, uning ilmiy va kognitiv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Jamiyatdagi munosabatlar dunyoqarash, hayot in'ikosi bevosita insonning olam manzarasiga, ya'ni ko'rgan-bilganlarini tilda ifodalashiga bog'liqdir.

Shunday qilib, olam manzarasi murakkab ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u ham universal, ham barcha zamonlar va xalqlar uchun o'zgarmas, shu bilan birga barcha tillar va madaniyatlarda rang-barang bo'lib, ularning geografik, tarixiy va madaniy rivojlanish xususiyatlarini aks ettiradi. Boshqacha aytganda, olam manzarasi dunyo haqidagi tasavvurlar asosida insonlar ongida dunyoning haqiqiy in'ikosidir. Zamonaviy tilshunoslikda olam manzarasining har xil ko'rinishi farqlanadi: falsafiy, lingvistik, konseptual, ilmiy, badiiy, diniy, mifologik, frazeologik, metaforik va boshqalar. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro aloqada. Demak, olam manzarasini insonning o'zi va uni atrofidagi o'rab turgan muhit haqidagi ma'lumotlarni ularning o'zaro ta'siri natijasida qayta ishlangan axborot deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Бенвенист Э. *Общая лингвистика* / под ред. и с вступительной статьей и комментарием Ю. С. Степанова / Э. Бенвенист. – М.: Прогресс, 1974. – 448 с.
- [2]. Бодуэн де Куртенэ И.А. *Избранные труды по общему языкознанию. В 2 т. Т. 1* / И.А. Бодуэн де Куртенэ; вступ. ст. действ. чл. АН СССР В.В. Виноградова и действ. чл. Польск. акад. наук В. Дорошевского. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – 384 с.
- [3]. Гумбольдт В. *Язык и философия культуры* / В. Гумбольдт; пер. с нем. М.И. Левиной [и др.]. – М.: Прогресс, 1985. – 451 с.
- [4]. Кубрякова Е.С. *Язык и знание: на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира* / Е.С. Кубрякова; Рос. Акад. наук. Ин-т языкознания. – М.: Яз. слав. культуры, 2004. – 560 с.
- [5]. Потебня А.А. *Мысль и язык* / А.А. Потебня. – М.: Правда, 1989. – 203 с.
- [6]. Степанов Ю.С. *Методы и принципы современной лингвистики* / Ю.С. Степанов. – М.: Наука, 1975. – 313 с.
- [7]. Яхшиев А.А. *Немис тили оғзаки нутқи тизимида фразеологик бирликларнинг семантик-дискурсив мақоми. Филология фанлар доктори (DSc) диссертацияси автореферати.* – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2021. – 74 б.